

X. XIZMATLAR SOHASI

UDK 379.851

XORAZM VILOYATIDA 2023-2030 YILLARDA TURIZMNI RIVOJLAN- TIRISH STRATEGIYASI

Ruzmetov B., Urganch Davlat universiteti, AQSH Nyu-York Fanlar Akademiyasi haqiqiy a'zosi,
i.f.d., professor

СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ НА 2023-2030 годы

Рузметов Б., Ургенчский государственный университет, действительный член Нью-Йоркской
академии наук США, д.э.н., профессор

TOURISM DEVELOPMENT STRATEGY IN KHORAZM REGION IN 2023- 2030 years

Ruzmetov B., Urganch State University, member of the New York Academy of Sciences USA,
Doctor of Economics, professor

Annotatsiya. Maqolada Xorazm viloyatida 2023-2030 yillarda turizmni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan. Xorazm viloyati turizmni rivojlantirishga oid ma'lumotlar tahlil qilish asosida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mintaqa, turizm, klaster, infratuzilma, strategiya, turistik destinatsiya, turistik zona, turistik diversifikatsiya.

Аннотация. В данной статье разработана стратегия развития туризма Хорезмской области на 2023-2030 годы. На основе анализа данных, связанных с развитием туризма в Хорезмской области, разработаны заключения и предложения.

Ключевые слова: регион, туризм, кластер, инфраструктура, стратегия, туристическая дестинация, туристическая зона, туристическая диверсификация.

Abstract. In this article a strategy for the development of tourism in Khorezm region in 2023-2030 was developed. Based on the analysis of indicators related to the development of tourism in the Khorezm region, conclusions and proposals have been developed.

Key words: region, tourism, cluster, infrastructure, strategy, tourist destination, tourist zone, tourist diversification.

1. KIRISH

Madaniy va tabiiy resurslar bo'yicha Xorazm jahon miqyosida muhim o'rin tutadi. Xorazmdagi mavjud resurslar viloyat turizm mahsulotlarini chuqur diversifikatsiya qilish va turistik mavsumni uzaytirishga imkon beradi. Bundan tashqari, Xorazm tarixan ilm-fan o'choqlaridan biri sifatida tanilgan. Aholi tarkibida yoshlar ulushini kattaligi ham inson resurslari borasida katta salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq, ayni vaqtda turizm sohasida malakali kadrlar tanqisligi sezilmoqda. Sayyohlarga xizmat ko'rsatishning eng quyi darajalaridan to boshqaruv darajasigacha bu sohada yetarli tayyorgarlikdan o'tgan malakali kadrlarga ehtiyoj sezilmoqda. Bu boradagi raqobatdoshlik xorijli mutaxassislarni jalb etish imkoniyati bilan ham belgilanadi.

2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda turizmga oid masalalar qator olimlar tomonidan o'rganilgan va turlicha ta'rif berilgan.

Mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilari I.To'xliyev, R.Amriddinova, Sh.Ro'ziyev, O.Xamidov, N.Ibadullayeva, F.Aziztoyeva, B.Mamatov va boshqalarning ilmiy asarlarida turizm sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlariga doir ko'plab masalalar yoritilgan, lekin turizmni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqishga oid ayrim masalalar yetarlicha o'rganilmaganligi bois ba'zi muammolar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar xorijiy mamlakatlar misolida turizmga oid masalalarni

ko'rib chiqishgan. Busby G., Rendle S. [12] ma'lumotlarga asoslanib, turizm sohasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilgan va mamlakatda uning rivojlanish darajasini tavsiflovchi asosiy jihatlari e'tibor qaratgan.

Azizkulov B.X., Siddiqov A.A. [11] mamlakat turizm sohasini rivojlantirishning rivojlanishining o'ziga xos jihatlari yoritgan va istiqbolda uni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada asosan Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish yo'nalishlari o'rganildi va tahlil qilindi, turizmni rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan strategiya afzalliklari ko'rsatildi. Tadqiqot jarayonida turizmni rivojlantirishning turli jihatlari o'rganilgan xorijiy olimlarning ilmiy maqolalari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, sifat va taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi.

4. TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Turizm sohasining huquqiy-meyoriy asoslari. Xorazmda turizm sohasi O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 maydagi PQ-2953-sonli "2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shaxrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarori [2] hamda boshqa tegishli meyoriy hujjatlar orqali tartibga solinadi. Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturining ishlab chiqilganligi turizmning viloyat iqtisodiyotida ustuvor tarmoq sifatida qaralayotganidan dalolat beradi. Qabul qilingan dasturga ko'ra, viloyatda turizm transport infratuzilmasi, turistik marshrutlar va xizmatlarni, hordiq chiqarish xizmatlarini takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Biroq, dastur bajarilishining bugungi kundagi holati qoniqarli emas. Masalan, dasturga ko'ra tezyurar poyezdlar qatnovi hamda Termiz, Samarqand, Qarshi va Buxoroga mahalliy aviareyslar tashkil etilishi rejalashtirilgan edi, lekin bu borada amaliy natijalarga erishilmagan.

Turizm bozoridagi uzoq muddatli tendensiyalar tahlili. Xorazm viloyatida uzoq muddat-

li vaqt davomida turizmning rivojlanishi turizm, iqtisodiyot, demografiya, ekologiya, texnologiya va boshqa sohalardagi qator bozor tendensiyalariga bog'liqdir. Turizm sohasidagi uzoq muddatli tendensiyalarga quyidagilar kiradi:

- Qariyb oltmish yildan buyon xalqaro turizmning barqaror o'sib kelayotganligi;

- Xitoy, Hindiston, Rossiya Federatsiyasi, Yaqin Sharq va Sharqiy Osiyodagi rivojlanayotgan davlatlarda turizm xizmatlariga o'sib kelayotgan talab va bu davlatlarning O'zbekistonga nisbatan yaqin joylashganligi;

- O'zbekiston aholisi va yuqorida sanalgan davlatlar aholisining jon boshiga to'g'ri keladigan daromadning muttasil oshib borayotganligi;

- Dunyo aholisi, xususan sayyohlar orasida ekologik muammolarni chuqurroq anglash natijasida atrof-muhitga zarar yetkazmaslikka e'tibor qaratish, mehmonxona va ovqatlanish joylari boshqaruvchilarining bunga befarq bo'lmasliklari;

- O'zbekistondan tashqarida va ichida ham Xorazmga raqobatchi turistik destinatsiyalarning jahon turizm bozorida hissasi oshib borayotganligi.

Demografik tendensiyalar:

- Dunyo aholisi ichida o'rta yoshlilar va qariyalar salmog'ining ortib borishi

- Yoshlar orasida faol dam olishga qiziqishining ortib borishi;

- Barcha yoshdagi kishilarning dunyo bo'ylab sayohat qilishga, boshqa madaniyat va tabiat manzaralari bilan tanishishga ishtiyoqining ortib borayotganligi;

- O'zbekiston aholisi ichida va Osiyo davlatlari aholisi orasida oilaviy, ziyorat, gastromomik turizmga talabning kattaligi.

Turizm sohasi rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatishicha, turizmning rivojlanishida uzoq muddatli tendensiyalarni hisobga olgan holda tegishli turizm infratuzilmasi hamda bir qator zarur shart-sharoitlar yaratilishi maqsadga muvofiq. Turizmni rivojlantirish strategiyasi strategik maqsadlar, erishilishi kutilayotgan ko'rsatkichlar, ishchi hamda monitoring dasturlaridan iborat bo'ladi. Mazkur strategiyada ko'rsatilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi Xorazm viloyati turizm sohasini faol o'sish

sikliga o'tishiga, respublika va xalqaro miqyosda raqobatdoshligini oshirishga xizmat qiladi. Turizm sohasida qabul qilingan dasturning amalga oshirilishi bilan viloyatda ko'rsatilayotgan turizm xizmatlari bozor qonunlari asosida rivojlanib va kengayib boraveradi. Turizm strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi Viloyat hokimiyati, mamlakat turizm tarmoqlarini samarali hamkorligiga bog'liq.

Strategiyaning bosh maqsadi sifatida Xorazm viloyatida turizm sohasini Samarqand va Buxoro turizm sohaslarining rivojlanish darajasiga yetkazish hamda bebaho tarixiy yodgorliklarni kelajak avlodlarga yetkazib berish belgilandi. Qo'yilgan strategik maqsadning muvaffaqiyatli amalga oshishi quyidagilar bilan o'zaro bog'liqdir:

- Xorazmni jahon tarixiy turizm bozorida yetakchi markazlardan biriga aylinishi;
- Turistlar sonining salmoqli o'sishi;
- Turizm daromadlarining oshishi;
- Turizm sohasida samarali ish joylarining tashkil etilishi.

Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirishda ham mahalliy, ham xorijiy sayyohlarni keng ko'lamda jalb etish, minglab yillar davomida jamlangan boy tarixiy-madaniy merosni butunjahon miqyosda targ'ib qilish nihoyatda muhimdir. Tashqi turizmning rivojlanishi viloyatga xorijiy valyuta tushumi, eksporti diversifikatsiyasi, aholi turmush darajasi o'sishida muhim o'rin tutsa, mahalliy turizmning rivojlanishi jahon turizm bozoridagi salbiy tashqi ta'sirlardan himoya qilish, yoshlarda vatanparvarlik, o'zligini anglash tuyg'ularining kuchayishini ta'minlaydi. Har ikkala shakldagi turizmni rivojlantirishda umumiy va o'ziga xos chora-tadbirlar ishlab chiqilishi talab etiladi.

5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Quyida belgilangan maqsadlarga erishish uchun kerakli chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi:

*Birinchi*dan, *turistik mahsulot va uning diversifikatsiyasi*. Xorazmda turizmni rivojlantirishda eng asosiy vazifalardan biri turistik mahsulotni mukammallashtirish, uning sifatini oshirish asnosida turistik mavsumni uzaytirishdir. Viloyatda turizm sohasidan keladigan tushumni oshirish uchun sayyohlarning yakka tartibda qulay va maroqli sayohat qilishlari uchun sharoitlar yaratish, ya'ni viloyatning yaxshi tu-

shunarli xaritasini ishlab chiqishga, turistlar zich yig'iladigan joylarda turistik ofis yoki markazlar tashkil qilishga, ko'chalarda va transportda xorijiy tillardagi belgilarni o'rnatilishiga katta e'tibor ajratish lozim.

Uzoq yillardan buyon kuzatilayotgan tarixiy-me'moriy turizmga ixtisoslashuv bilan birgalikda yangi ekologik turlar, ziyorat, gastronomik turlar bozorini o'zlashtirish kerak.

Turizm mahsulotini diversifikatsiyalash va jozibadorligini oshirish uchun boshqa mintaqalar, ayniqsa Qoraqalpog'iston turizm tashkilotlari bilan o'zaro foydali hamkorlikni keng yo'lga qo'yilishi tavsiya etiladi. Global internet tarmoqlarida Xorazmga tashrif buyurgan ko'p sayyohlar Qoraqalpog'istondagi Ayoq qal'aga ham sayohat qilganlari va a'lo darajadagi taassurotlari haqida bayon etganlar. Xorazm va Qoraqalpog'iston mahalliy hokimiyat organlari va turistik tashkilotlarining birgalikdagi ishlari orqali har ikkala tomonning madaniy va tabiiy turizm resurslaridan yanada kengroq foydalanish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiyalash, turizm rivojlanishdan periferal tumanlar ham foyda ko'rishlariga erishish, Xorazm madaniyati asori atiqalariga ortiqcha yuklamani kamaytirishga erishish mumkin.

*Ikkinchi*dan, *madaniy xordiq chiqarish va ko'ngilochar tomoshalar*. Viloyatda zamonaviy istirohat bog'laridan tashqari qiziqarli tematik bog'lar barpo etish, masalan, ko'p turistlar orasida "Xorazm ertaklar makoni" sifatida tanilganligini hisobga olganda, Sharq ertaklari mavzuidagi eksklyuziv bog'ni barpo etish mumkin, unda "Ming bir kecha", "Aloviddin va sehrli ko'za" kabi ertaklarni jonlantiruvchi personajlarni qo'llash, bog' ichida turli viktorinalar va kichik sovg'alar ulashilishini yo'lga qo'yish mumkin. Xorazm tarixidagi afsonaviy qahramonlar jonlanuvchi namoyishlar tashkil etish tavsiya etiladi.

Bugungi kunda sayyohlarning saviyasi va talablari muntazam ko'tarilib borayotganligi tufayli turistik xizmatlar ko'rsatishda zamonaviy talablarni inobatga olish nihoyatda muhimdir. Masalan, hozirgi davr turizmining barcha shakllarida sayyohning faol ishtiroki rivojlanib bormoqda, ushlab ko'rish, yasab ko'rish, ishtirok etish va hokazo. Har bir turistik marshrut tuzilganda, sayyohlarning kamida bitta faoliyat

turida ishtirok etishlarini ta'minlash hisobga olinishi lozim. Masalan, hunarmandchilik yarmarkalarida muntazam master-klasslar tashkil etilishi va sayyohlarga elementar ishtirok taklif qilinishi mumkin. Bundan tashqari, hozirda Yevropa shaharlarida ko'cha namoyishlari keng tarqalib bormoqda, turistik shaharlarning markaziy ko'chalarida jonli haykallar turishi, qiziqarli namoyishlar uyushtirilishi kuzatiladi. Xorazmda masalan polvonlar kurashi, karnay guruhlari chiqishi kabi milliy an'analar namoyishini tashkil etish mumkin.

Uchinchidan, xizmatlar sifatini oshirish. Turizm xizmatlari sifatini oshirish eng ustuvor masalalardan biridir. Fan va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanib borayotganligi turizm sohasida mukammal, hech qanday xatolarsiz turistik xizmat ko'rsatilishi talabini qo'yimoqda, tobora har bir iste'molchi xohish-istaklarini hisobga olish ahamiyati oshib bormoqda. Xizmatlar sifatini yaxshilash uchun xalqaro standartlarni o'rganib, soha vakillariga havola etish hamda turizm sohasida ta'lim sifatini o'stirish, xalqaro andozasida sifatga bo'lgan talablar bilan turizm sohasi va boshqa uyqash sohalar vakillarini tanishtirish kerak.

Xizmatlar sifatini oshirish uchun Turkiyada Professional malakani sertifikatlash tizimi joriy etilgan. Buning uchun turizm, ovqatlanish va boshqa xizmatlar yo'nalishida "Iste'molchiga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish" konsepsiyasini keng targ'ib etish, muomala madaniyatini tarbiyalash, har bir shaxsga hurmat va xushmuomalalik bilan murojaat etish o'rganiladi. Mehmonxona va boshqa joylashtirish muassasalari uchun ham xalqaro standartlar asosida milliy talablarni o'rnatish va turizm sohasidagi nodavlat notijorat tashkilotlar orqali sifatni ushlab turishni monitoring qilish.

Urganch Davlat Universiteti bazasida jahon, respublika va Xorazm viloyati turizm bozoridagi tendensiyalar, talablar, yangi mahsulotlar, iste'molchilar xulq-atvori va boshqa xususiyatlarini o'rganuvchi ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish va viloyatda turizmni rivojlantirish bo'yicha mas'ul shaxslarga, xususiyl biznes vakillariga amaliy tavsiyalar ishlab chiqishlarini yo'lga qo'yish Xorazm viloyati turistik mahsuloti sifatini muntazam oshib borishi,

innovatsion g'oyalar bilan yangilanib borishiga yordam beradi.

To'rtinchidan, transport: Transport iste'molchini turizm bozoriga yetkazuvchi asosiy vositadir. Xorazm viloyatining turistik salohiyatidan yanada kengroq foydalanish uchun sayyohlarga mo'ljallangan transport turlarini rivojlantirish talab qilinadi. Eng avvalo, Xorazm aeroportini xalqaro darajada yuqori sifatli xizmat ko'rsatuvchi aeroport sifatida tanilishiga erishish, shunda O'zbekistonga tashrif buyurayotgan sayyohlar aynan shu aeroport orqali kelishni rejalashtiradilar va viloyatga keluvchi turistlar soni ortadi.

Viloyatni O'zbekistonning boshqa hududlari bilan bog'lovchi transportni rivojlantirish, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Toshkentga qatnovchi poyezdlar reyklarini tashkillashtirish va ularning kundalik muntazam qatnovini ta'minlash.

Viloyat ichida yengil avtomobillar arendasini tashkil etish. Rivojlangan davlatlarda sayyohlarga yengil avtomashinalar arendasini taklif qilish xizmatlari juda yuqori darajada rivojlangan. Bu sayyohlarga kichik guruhlarda maroqli hordiq chiqarishlari uchun imkoniyat beradi. Bizning davlatimizda ham yengil avtomobillarni kunlik arendaga berish xizmatlarini tashkil etish, turizm bozori uchun katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari uzoq muddatli strategiyada Xiva va Urganch shaharlari ichida elektrlashtirilgan tramvay yoki velosipedlarda sayohat qilish infratuzilmasini ham barpo etish maqsadga muvofiqdir. Bu turistlar soni keskin oshgan davrda viloyat ekologiyasiga salbiy ta'sirni kamaytirish uchun katta ahamiyatli choradir. Turistik mavsumdan tashqari vaqtlarda chegirmalar taklif etish. Barcha turizm rivojlangan joylarda mahalliy turizm katta ahamiyatga va ulushga ega bo'ladi. Mahalliy turizmning rivojlanishi mahsulot ishlab chiqilishi, marketing tadqiqotlari, distribyusiyasi, axborot ta'minoti va ijtimoiy turizm dasturlarida kengroq e'tibor talab qiladi. Mahalliy turizm rivojlanishida kamxarajat yotoq joylari, transportga chegirmalar berilishi, tegishli segmentga tegishli takliflar ishlab chiqilishi orqali rivojlantiriladi. Masalan, Buyuk Britaniyada "Milliy ekspres" transport korxonasi istagan yerigacha 5 funt sterling (7 Aqsh dollari) miqdorida narx belgi-

laydi va elektron tarzda barcha talabalarga e'lon qiladi. Natijada talabalar eng uzoq man-zillarga arzon narxlarda sayohat qilib, u joylar iqtisodiyotiga hissa qo'shishlari mumkin.

Beshinchidan, mehmonxona xo'jaligi. Mehmonxona va boshqa joylashtirish muassalarida xizmatlar sifatini xalqaro talab darajasida tashkil etish. Joylashtirish muassasalari tarkibida talabalar va yoshlar turizmiga monand qulay va arzon yotoq joylarini, o'rta daromadli turistlar segmentiga mos mehmonxonalar, uylar va shahardan tashqarida kempinglarni sonini ko'paytirish.

Shular bilan 5 yulduzli xalqaro mehmonxonalar vakillarini jalb etish. Xalqaro miqyosda 5 yulduzdan kam mehmonxonada to'xtamaydigan sayyohlar segmenti bo'lib, uzoq muddatli strategiyada shunday mehmonxonalar ham qurilishini amalga oshirish lozim. Xorazm viloyatining mavjud turizm obyektlari dunyoning o'rta va yuqori tabaqa vakillarini birday maftun etadi.

Oltinchidan, turizm tashviqoti.

- Xorazm viloyati turistik vebportalini tashkil etish va mazkur portalda tashviqot ishlarini faol amalga oshirish.

- Xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etishni kengaytirish

- Xorazm madaniyati, yashash tarzi, hayoti yoki tarixiy qahramonlari aks etgan yuqori sifatli badiiy filmlar suratga olish. Bun-day usul Turkiya, Braziliya, Argentina davlatlari turizm sohasi tashviqotida juda keng qo'llaniladi va yuqori samarali hisoblanadi.

Yettinchidan, qulay investitsiya muhitini tashkil etish. Turizm sohasi jahon miqyosida investitsiya kiritilishi uchun eng ko'p imtiyozlar va jozibador shart-sharoitlar yaratib berilgan sohadir. Xorazm viloyatida ham mazkur sohaning hududiy va milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini o'stirish maqsadida turizm sohasidagi korxonalariga soliq va boshqa imtiyozlar tayinlanishi lozim. Bunday imtiyozlar mehmonxonalarda kichik modernizatsiya o'tkazish va turagentliklar turizm tashviqotini kuchaytirishlari uchun berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishni ta'minlash kerak. Yangi turdagi turistik mahsulotlar (ekologik, gastronomik, faol va boshqa turizm shakllari)ni rivojlantirilishi uchun moliyaviy yordam ko'rsatish mexanizmlarini ishlab chiqish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 maydagi PQ-2953-sonli "2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shaxrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi Qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-sonli "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF 60-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasi 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi PQ-3217-son "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-son "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 apreldagi 03/1-220-son bilan tasdiqlangan "Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda namunali fermer xo'jaliklarini soyyohlarga xizmat ko'rsatishga moslashtirish, ularga sayyohlarni jalb qilish hamda ularning mamlakatimizda bo'lish muddatlarini uzaytirish maqsadida agroturizm va qishloq turizmini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"
9. Raximov Z.O., Ibadullayev N.E., Xaitboev R. Turopereyting// Darslik. Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi". 2021. 396 b
10. Raximov Z.O., Ismailov N.I., Rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotda raqamlashayotgan turizmning ahamiyati // Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universitetining Axborotnomasi. Nukus. 2020. 3-son (ISSN 2010-9075). 42-45 b
11. Azizkulov B.X., Siddiqov A.A., Assessment of the features of investment in the development of agrotourism based on a cluster approach// Journal of innovations in economy. 2021. Vol. 4, Issue 1. (40-48) pp. DOI 10.26739/2181-9491-2021-1-6
12. Busby G., Rendle S. The transition from tourism on farms tourism// Management, 21(6):635-642. DOI:10.1016/S0261-5177(00)00011-X
13. www.lex.uz
14. uzbektourism.uz